IBRAT SHE'RIYATIDAGI QADIMGI TURKIY SO'ZLARNING LEKSIK-SEMANTIK TASNIFI

G.M.Murodova[1]

1. BuxDU PhD Mustaqil tadqiqotchi

Mas'ul muallif: Murodova Gulchiroy Muhiddinovna, BuxDU PhD Mustaqil tadqiqotchi.

e-mail: gulchiroy.murodova94@gmail.com

Received: 17 Oktabr 2026
Accepted: 22 Oktabr 2026
Published: 27 Oktabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Murodova, G. M. IBRAT SHE'RIYATIDAGI QADIMGI TURKIY SO'ZLARNING LEKSIK-SEMANTIK TASNIFI / G. M. Murodova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 10, № 2. — B. 430–432.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Is'hoqxon Ibrat badiiy asarlarida qo'llangan qadimgi turkiy so'zlarning lingvistik va badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Adib ijodida uchraydigan arxaik leksik birliklarning ma'no xususiyatlari, uslubiy vazifasi hamda asarlarining badiiy-estetik qimmatini oshirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, qadimgi turkiy leksikaning milliy til taraqqiyoti, tarixiy-madaniy merosni saqlash va o'zbek adabiy tilining boyligini namoyon etishdagi ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijasida Is'hoqxon Ibrat asarlaridagi mavjud qadimgi turkiy qatlamga mansub so'zlar muhim badiiy vosita sifatida xizmat qilishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: Is'hoqxon Ibrat, qadimgi turkiy so'zlar, arxaizmlar, leksika, badiiy til, tarixiy so'zlar, turkiy tillar, adabiy meros, uslubiyat, o'zbek tili, lingvistik tahlil, milliy qadriyatlar.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ДРЕВНЕТЮРКСКИХ СЛОВ В ПОЭЗИИ ИБРАТА

Аннотация. В данной статье анализируются лингвистические и художественные особенности древнетюркских слов, используемых в произведениях Исхокхона Ибрата. Подчеркиваются семантические особенности, стилистическая функция архаичных лексических единиц, встречающихся в творчестве писателя, и их роль в повышении художественной и эстетической ценности его произведений. Также раскрывается важность древнетюркской лексики в развитии национального языка, сохранении историко-культурного наследия и проявлении богатства узбекского литературного языка. В результате исследования установлено, что слова, принадлежащие к древнетюркскому слою, в произведениях Исхокхона Ибрата служат важным художественным инструментом.

Ключевые слова: Исхакхон Ибрат, древнетюркские слова, архаизмы, лексика, художественный язык, историческая лексика, тюркские языки, литературное наследие, стилистика, узбекский язык, лингвистический анализ, национальные ценности.

LEXICO-SEMANTIC CLASSIFICATION OF OLD TURKIC WORDS IN IBRAT'S POETRY

Abstract. This article analyzes the linguistic and artistic features of the ancient Turkic words used in the works of Is'hoqkhon Ibrat. The semantic features, stylistic function of archaic lexical units found in the writer's work, and their role in increasing the artistic and aesthetic value of his works are highlighted. The importance of the ancient Turkic lexicon in the development of the national language, the preservation of the historical and cultural heritage, and the manifestation of the richness of the Uzbek literary language is also revealed. As a result of the research, it was found that the words belonging to the ancient Turkic layer in the works of Is'hoqkhon Ibrat serve as an important artistic tool.

Keywords: Ishaqkhan Ibrat, Old Turkic words, archaisms, vocabulary, literary language, historical lexicon, Turkic languages, literary heritage, stylistics, Uzbek language, linguistic analysis, national values.

Kirish. Turkiy xalqlar adabiyoti va yozma merosini lingvistik jihatdan o'rganish milliy til tarixining shakllanish bosqichlari, lug'at tarkibining taraqqiyoti hamda qadimgi turkiy tilga xos leksik-semantik xususiyatlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mumtoz va ma'rifatparvar shoirlar ijodida qo'llangan qadimgi turkiy so'zlarni tadqiq etish orqali tilning tarixiy qatlamlari, semantik o'zgarishlari va badiiy ifoda imkoniyatlarini yoritish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, Ibrat she'riyatidagi qadimgi turkiy so'zlarning leksik-semantik tasnifini o'rganish tarixiy leksikologiya, etimologiya va adabiy til taraqqiyoti bilan bog'liq dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Is'hoqxon Ibrat o'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lib, uning ijodiy merosi til, adabiyot, ma'rifat va madaniyat tarixini o'rganishda muhim manba vazifasini bajaradi. Shoir asarlarida davrning ijtimoiy-ma'naviy qarashlari, xalqning turmush tarzi, milliy qadriyatlari va dunyoqarashi bilan bog'liq tushunchalar o'z ifodasini topgan. Ushbu mazmunni yuzaga chiqarishda qo'llangan leksik birliklar, jumladan, qadimgi

turkiy qatlamga mansub so‘zlar shoirning individual uslubi va badiiy tafakkurini tavsiflashda alohida o‘rin tutadi. Bunday birliklarni tizimli o‘rganish Ibrat she’riyatining nafaqat badiiy, balki lingvistik xususiyatlarini ham chuqurroq anglash imkonini beradi.

Til taraqqiyoti davomida ayrim so‘zlar o‘zining dastlabki ma’nosini saqlab qoladi, boshqalari esa fonetik, morfologik va semantik o‘zgarishlarga uchraydi. Shu sababli tarixiy matnlarda uchraydigan qadimgi turkiy so‘zlarni aniqlashda ularning hozirgi o‘zbek tilidagi shakli va ma’nosinigina emas, balki tarixiy manbalardagi qo‘llanishi, etimologik kelib chiqishi hamda matn tarkibidagi vazifasini ham hisobga olish zarur. Ibrat she’riyatidagi bunday so‘zlarning leksik-semantik xususiyatlarini o‘rganish orqali ularning qaysi ma’no guruhlariga mansubligi, qanday tushunchalarni ifodalashi va she’riy matnda qanday uslubiy vazifa bajarishini aniqlash mumkin.

Qadimgi turkiy so‘zlarning leksik-semantik tasnifi ularni ma’no xususiyatlariga ko‘ra muayyan guruhlarga ajratish, o‘zaro semantik munosabatlarini belgilash va matndagi qo‘llanish holatlarini izohlashni nazarda tutadi. Bunda inson va uning faoliyati, tabiat hodisalari, qarindoshlik munosabatlari, ijtimoiy hayot, ma’naviy tushunchalar, harakat-holat hamda belgi-xususiyatlarni ifodalovchi birliklar kabi semantik guruhlar tahlil uchun asos bo‘lishi mumkin. Biroq bunday tasnif Ibrat she’riyatining aniq matniy dalillariga tayangan holda amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, qadimgi turkiy qatlamga mansublikni belgilashda so‘zning tarixiy-etimologik ma’lumotlari bilan bir qatorda, uning mumtoz o‘zbek tili va eski turkiy yozma an’analaridagi qo‘llanishi ham e’tiborga olinishi kerak.

Is’hoqxon Ibrat o‘zbek ma’rifatparvarlik adabiyotining yirik vakillaridan biri hisoblanadi. Uning asarlarida xalq tili boyliklari, tarixiy va madaniy meros bilan bog‘liq ko‘plab til birliklari uchraydi. Xususan, qadimgi turkiy so‘zlarning qo‘llanishi adib uslubining muhim jihatlaridan biridir. Ushbu maqolaning maqsadi Is’hoqxon Ibrat asarlaridagi qadimgi turkiy so‘zlarni aniqlash, ularning semantik xususiyatlari va badiiy funksiyalarini tahlil qilishdan iborat.

Turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tilining tarixi miloddan burungi davrlarda ildiz otgan, uning tarixi qadimgi oltoy davridan boshlanadi [2; 4]. Qadimgi turkiy til leksikasi hozirgi turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tilining keyingi davrlari leksikasiga asos bo‘lgan. Shunga muvofiq ushbu maqolada Is’hoqxon Ibrat badiiy asarlaridagi qadimgi turkiy tilga oid leksemalar hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikasi nuqtayi nazaridan baholandi. Ularni belgilashda qadimiy turkiy yodnomalar leksikasi bo‘yicha tuzilgan lug‘atlar va glossariylardan foydalanildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Turkiy tillar tadqiqiga bag‘ishlangan qator tadqiqotlarda ushbu tillarning fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari alohida mavzu sifatida o‘rganilgan bo‘lib, alalxusus, ularning leksik tahlili borasida amalga oshirilgan ishlar, ayniqsa, salmoqlidir. Turkiy tillar tarixiy leksikasini til nuqtayi nazaridan o‘rganish jahon tilshunosligida V.V.Radlov, S.E.Malov, A.N.Kononov, N.A.Baskakov, A.M.Shcherbak kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. O‘zbek tilshunosligida esa A.K.Borovkov, E.Fozilov, A.Hojiyev, B.To‘ychiboyev, Sh.Rahmatullayev, H.Dadaboyev va boshqa olimlarning ishlari muhim ahamiyatga ega.

Is’hoqxon Ibrat ijodining adabiy xususiyatlari borasida U.Dolimov, B.Qosimov, N.Jabborov, I.Abdullayev kabi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, biroq shoir she’riyatidagi qadimgi turkiy so‘zlarning leksik-semantik xususiyatlari monografik planda yetarlicha o‘rganilmagan.

Metod va metodologiya. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, semantik, komponent tahlil hamda lingvostatistik tahlil metodlardan foydalanildi. Tahlil materiali sifatida Ibratning “Tanlangan asarlar” to‘plamidagi she’rlariga murojaat qilindi.

Natijalar. Badiiy adabiyotda qalam tebratgan o‘ziga xos ijodkorlar nafaqat adabiy merosning boyishiga, balki istiqomat qilgan davri leksikasining ham taraqqiy etishiga o‘zlarining salmoqli hissasini qo‘shganlar. Ana shunday ijodkorlardan biri Is’hoqxon Ibrat bo‘lib, Ibrohim Davron bu ijodkorga quyidagicha ta’rif beradi: “Is’hoqxon to‘ra ulumi diniya va fanniya va adabiyada ustozi komilligi bilan bo‘tun Farg‘ona va digar jihat Oziyoyi vustoda (O‘rta Osiyoda) inkor o‘lunmas darajada bir mavqei mumtoza tutmushdur. Is’hoqxon to‘ra ulumi diniyada mudarrisdur, fununi dunyaviyda, bilo shubha, arxitektor, texnik va mexanik va fiziqiya ilminda tilifonist, tilig‘rofist va yana ximik desak yana ozdur, chunki bu ilmlarni bilur. Is’hoqxon to‘ra olim va fozil bir zoti oliy bo‘lub, bu turfa fazoili insoniyaga molik... Ba’zi ixtiroti ham bordur” [9]

Is’hoqxon Ibrat she’riyati tilida iste’molda bo‘lgan so‘z boyligining asosiy qismini, aytilganidek, o‘z qatlamga xos leksik birliklar tashkil etadi. Bu qatlam tarkibida muayyan miqdorda qadimgi turkiy til (VII-X) va ilk eski turkiy tilga (XI-XII) oid lug‘aviy birl;iklar ham mavjud. Ularni quyidagi mavzuiy guruhlar bo‘yicha tasniflash mumkin [1]

1. Yegulik va ichimliklar nomi: oziq (oziq-ovqat ma’nosida), tuz (taom ma’nosida), et (go‘sht), chog‘ir (may, sharob), un, bol (asal), qaymoq, saryog‘ (sariyog‘), qimiz va h.k.

2. Qon-qarindoshlik atamalari: ona, qiz, ota, kelin, er, xotin (qadimgi turkiy tilda xatun//qatun so‘zi, asosan, “xonim” ma’nosida; mashhur va obro‘li kishilarning xotinlariga nisbatan qo‘llangan), orqadosh, bobo (qadimgi turkiy tilda baba tarzida ifodalangan va u “ota” ma’nosida qo‘llangan), o‘g‘il, singil, qarindosh, tog‘a, yo‘ldosh, opa, qaynota, aka, uka va h.k.

3. Inson tana a’zolarining nomi: ko‘z, oyog‘ (oyoq), yuz, yurak,qo‘l, tirnog‘ (tirnoq), ko‘krak, tish, bosh, bo‘yin, og‘iz, barmoq, soch, bag‘r//ko‘ks, quloq, ilik//qo‘l, bel, qorin, manglay, qad//bo‘y, kifrig (kiprik), quyin//quchog‘ (quchoq), yanog‘ (yonoq; yuzning bo‘rtiq qismi), tomoq//tamog‘ va h.k.

4. O‘simliklar va ular bilan bog‘liq tushunchalarning nomi: chechak (gul), terak, og‘och (daraxt), yaprog‘ (yaproq), momiq (paxta), o‘sma, olma, bug‘doy, o‘rik, o‘t, tikan, somon, yantoq, tomir (ildiz), tarig‘ (tariq), butoq (yon shox) va h.k.

5. Narsa-buyum va maishiy turmush jihozlarining nomlari – maishiy leksika: ip, o‘choq, chiroq, qin (qin, g‘ilof), qamchin//qamchi, etak, tayoq, beshik, ketmon, pichoq, to‘r, eshik, o‘roq, elak, ko‘zgu, taroq, karpich (g‘isht), igna, tog‘ora, egov, qozon, tavog‘ (tovoq), elpig‘ich, eshkak, qoshiq, bolta (qadimgi turkiy tilda baldu shaklida uchraydi) va boshq.

6. Zoologik terminlar: qoplon, qush, tulki, baliq, ot, qo‘ng‘iz, kapalak, it, kiyik, arslon, teva (tuya), tovuq, bo‘ri,

qaldirg‘och, zog‘, chayon, eshak//eshshak, ilon//yilon, chumoli, sigir, kuchuk, chibun//chibin, qarchig‘ay, ulov (minib yuriladigan hayvon), quzg‘un (o‘limtikxo‘r qush), qarg‘a, sichqon va boshq.

7. Tabiat va iqlim bilan bog‘liq so‘zlar: yog‘mur//yomg‘ur (yomg‘ir), el (shamol), bulut, muz, oy, quyosh//kun, yulduz, ko‘k (osmon), yashin, chaqmoq, borlig‘ (koinot, olam), yolqin (kamalak) va h.k.

8. Mavhum tushunchani ifodalovchi leksik birliklar: o‘gut (nasihat), qut (qut, baxt, davlat), sezgu (sezgi), uyqu, uyat, sevgi, ko‘ngil, sevinch, quvonch, qo‘rqinch va h.k.

9. Diniy tushunchalarning nomi: tamug‘ (do‘zax, jahannam), uchmoh (jannat), tangri (mo‘g‘uliy//turkiy) va h.k.

10. Osmon jismlari va geografiyaga oid nomlar: oy, quyosh//kun, yer, yurt, ochun (dunyo, olam), soy, qir, ko‘l, buloq, qirg‘oq, yulduz, tog‘, ko‘k (osmon) va h.k.

11. Vaqt, zamon va fasl tushunchasini ifodalovchi so‘zlar: tun, kun, erta (ertalab; barvaqt), kech, kecha, bukun (bugun), chog‘ (chog‘, vaqt), ilk (ilk, avval), ilgari, qish, ko‘k//ko‘klam (bahor), tong va h.k.

12. Harbiy terminlar: o‘q, yoy (yoy, kamon), qilich, qalqon, qo‘shun (qo‘shin) va h.k.

13. Mansab, unvon va kasb-korni ifodalovchi nomlar: xoqon, xon, bek (bek, amaldor), boshliq (boshliq, rahbar), soqchi, tevachi (tuyachi) va h.k.

14. Xususiyat va belgi ifodalovchi so‘zlar: buyuk, yolg‘uz (yolg‘iz), arig‘ (sof, toza), ulug‘ usruk (mast, sarxush), qiliq (tabiat, xulq, xarakter), yovuz, o‘ng‘ay (qulay), qizil, qora, ko‘k, sarig‘ (sariq), buzuq, eski, og‘ir, egri, och, og‘ir, sovuq, issig‘ (issiq) va h.k.

Ibrat she’riyati tilida qadimgi turkiy leksik birliklardan yana kiyim-kechak va ularning qismlarining nomi (etik, to‘n, yeng, yoqa kabi); yosh xususiyatini anglatuvchi so‘zlar (qiz, erkak, qari//qariya, chol kabi); urug‘, xalq nomlarini bildiruvchi etnonimlar (turk, uyg‘ur kabi); miqdorni bildiruvchi birliklar (bir, uch, to‘rt, besh, yuz, ming//bing kabi); o‘rin-joy tushunchalarini ifodalovchi so‘zlar (qishloq, tegra (atrof), uy, o‘rin kabi); ijtimoiy-siyosiy atamalar (tutqun//tutqu (asir), qul kabi; shaxs tushunchasini anglatuvchi so‘zlar (men//man, sen//san, ul, kishi kabilar) ham qo‘llangan. Ta’kidlash joizki, mazkur mavzuiy guruhlardagi qadimgi turkiy tilga oid lug‘aviy birliklar miqdor jihatdan ozchilikni tashkil qiladi.

Muhokama . Is’hoqxon Ibrat lirik asarlari tilida istifoda etilgan qadimgi turkiy so‘zlarni hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikasi nuqtayi nazaridan baholash muhim ahamiyatga ega. Mazkur so‘zlarning aksariyati hozirgi o‘zbek adabiy tilida keng foydalanilsa, ayrimlari iste’moldan chiqib, eskirgan qatlamga kirgan. Shu ma’noda ularni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanishda davom etayotgan qadimgi turkiy so‘zlar: yurt, yer, yashin, qilich, qamchi, o‘q, temir, tuproq, arpa, tariq,qizil, olma, ona, ota, aka, tog‘a, ot, bosh, kema, qor, qum, qoplon, qarg‘a, qumg‘on, suv, ko‘z, quloq, og‘iz, oyoq, qorin, tomoq, tikan, yaproq, bug‘doy, pichoq, taroq, qin, bolta, baliq, qoplon, chayon, chivin, ilon, eshak, tuya, chumchuq, boyqush, quyosh, oy, yulduz, bulut, tog‘, qishloq va boshqalar. Ularning ma’no-mazmuni hozirgi kitobxon uchun tushunarli. Mazkur guruhga kiruvchi leksik birliklar o‘zining asl ma’nosini saqlab qolgan.

2. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanmaydigan qadimgi turkiy so‘zlar (istorizmlar). Bunday izohtalab, eskirgan, iste’moldan chiqqan so‘zlar sirasiga oziq (oziq-ovqat ma’nosida), tuz (taom, egulik ma’nosida), chog‘ir (may, sharob, boda), og‘och (daraxt), og‘u (zahar), asru (juda ko‘p, benihoya, g‘oyat, talay), usruk (mast, sarxush), ilik (qo‘l) kabilarni misol sifatida keltirish mumkin.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, qadimgi turkiy leksikasi Ibrat To‘ra she’riyati tili, chunonchi, o‘zbek adabiy tili leksik fondining asosiy qismini tashkil etgan va ular ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy, ma’rifiy hamda diniy tushunchalarni ifodalash uchun ishlatilgan. Is’hoqxon Ibrat she’riyatidagi qadimgi turkiy leksikaning muhim ulushini harakat-holat, xususiyat-belgi, narsa-buyum va qarindoshlik tushunchalarini ifodalovchi leksemalar tashkil etadi. Diniy-afsonaviy tasavvurlar va mansab-martabalarni ifodalovchi lug‘aviy birliklar miqdori nisbatan kamroq. Shuningdek, Ibrat she’riyati tilidagi qadimgi turkiy so‘zlarning aksariyati narsa-buyum nomlarini ifodalaydi. Umuman olganda, mazkur ijodkor o‘zbek tili xususiyatlarini chuqur bilgan, uning yangi-yangi imkoniyatlarini mohirona kashf etgan, ulardan san'atkorona foydalana olgan. Is’hoqxon Ibrat umumxalq tilining ajralmas qismi bo‘lgan jonli til boyliklaridan keng va ustalik bilan foydalandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Ibrat I. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020.
[2] Sodiqov Q. Turkiy til tarixi. – Toshkent, 2009. – 369 b.
[3] Алиев А., Содиқов Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994.
[4] Бегматов Э. Ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 200 б.
[5] Дадабоев Ҳ., Хамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Фан, 2007.
[6] Долимов У. Исҳоқхон Ибрат. – Тошкент: Шарқ, 1994. – 140 б.
[7] Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. –Тошкент: Фан, 2006. – 76 б.
[8] Саидов Ё. Жадид бадиий асарлари лексикаси: Филол. фан. докт. ... дисс. –Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2018.
[9] Туркистон вилоятининг газети. – 1908. – № 56.